

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

GRAMMATIKA VA UNING PREDMETI. GRAMMATIK KATEGORIYA, GRAMMATIK MA'NO VA GRAMMATIK SHAKL.

Jonzoqova Sevara

Aliqulova Zebo

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan grammatika tushunchasi, fandagi tutgan o'rni, grammatik va leksik ma'no tushunchasi, o'rganish obyekti, tarkibiy qismlari, grammatik shakl, grammatik kategoriyasi va uning turlari, usullari tahlil etiladi.

KALIT SO'ZLAR: Grammatika, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya, leksik ma'no, affiksial vosita, sintaktik qolip, so'z tartibi, ohang, so'z yasovchi, lug'aviy shakl, kategoriya, kesimlik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, grammatik qurilish, morfologiya, sintaksis, so'z birikmasi, gap, til sistemasini tadqiq qilish metodlari

Grammatikada so'z shakli, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya haqidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi. Tilda o'zining doimiy ifodalovchisiga ega bo'lgan, so'z shakli va gapga xos umumlashgan ma'no grammatik ma'no hisoblanadi. Ma'lum grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, ma'lum grammatik ma'noning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani tashkil etgan qismlarning bir tomonini- shakliy tomonini ifodalaydi. Ohang-grammatik ma'no ifodalashning fonetik vositasi. Bu vosita yordamida gapning turi, gap bo'laklariga ajratish, farqlash mumkin. Affiksatsiya tizimida grammatik ma'noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. So'z tartibi-grammatik ma'no anglatishning yana

bir vositasi. So'zlarning gapda ma'lum tartibda oldinma- keyin joylashtirilishi ham grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi.

Grammatik ma'no haqida umumiy tushuncha. Ma'lumki, grammatik ma'no ifodalashning turli vositasi mavjud. Grammatik ma'no deganda til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstract ma'nolari tushuniladi. Grammatik ma'no tarkibi murakkab. Uni ifodalashning quyidagi vositalari mavjud:

- 1) Affiksial vosita;
- 2) Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'z;
- 3) So'z tartibi;
- 4) Takror;
- 5) Ohang;
- 6) Sintaktik qolip;

Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'no ifodalanadi.

- a) So'z yasovchi affiks;
- b) Shakl yasovchi affiks;

O'zbek tilida sof ko'makchi fe'llar yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ,masalan, *bo'l, ol, qo'y, bor, kel* kabilar ko'makchi fe'l vazifasida kelib turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *bo'l* ko'makchi fe'li tugallik, to'la bajarilish ma'nosini ifodalaydi. *Zulfiya topshiriqlarni bajarib bo'ldi.*

Grammatik ma'no anglatishning yana bir vositasi *so'z tartibi* dir. So'z tartibi xitoy-tibet tillari oilasiga kiruvchi tillarda va qurilishi shu tillarga o'xshash bo'lgan boshqa tillarda juda muhimdir.

-Masxaraboz masxarabozni masxaraboz deb atadi.

Soʻz gapda uch xil vazifani bajarmoqda: ega, vositasiz toʻldiruvchi, vositali toʻldiruvchi.

Sintaktik va analitik vositalar. Grammatik maʼnolarni ifodalovchi til vositalari turli-tumandir. Tilshunoslikda bu vositalar ikki katta gruppaga ajratilgan: *sintetik vositalar, analitik vositalar*.

Sintetik vositalarga affiksatsiya (prefeks, suffekslar), ichki flektsiyaning hamma turlari (arab tiliga xos xususiyatlar), hind-evropa tillari soʻz oʻzagidagi unlining oʻzgarishi, suppletiv formalar kiradi.

Analitik vositalar grammatik maʼno anglatuvchi yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi orqali grammatik maʼno anglatish, takror, intonatsiyalardan iborat.

Grammatik maʼno ifodalovchi morfologik koʻrsatkich grammatik shakl yasovchi yoki qisqa qilib grammatik shakl deyiladi. Oʻtgan davr mobaynida oʻzbek tili grammatik koʻrsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avval arab, keyinchalik rus tili grammatik meʼyoriga asoslangan holda berib kelindi. Grammatik koʻrsatkichlarning yangicha tasnifi:

- a) Lugʻaviy shakl hosil qiluvchi;
- b) Sintaktik shakl hosil qiluvchi;
- c) Lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi;

Grammatik kategoriya. Kategoriya atamasi tilshunoslikka falsafadan kirgan termin. U falsafada „obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatdan koʻproq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha“ tarzida taʼriflanadi. Kategoriyalarning 9 ta turi mavjud. SHulardan egalik kategoriyasi haqida. Bu kategoriyaning koʻrsatkichlari quyidagilar: yaʼni egalik qoʻshimchalari hisoblanadi. Bu kategoriya shaxs va son maʼnosi bilan uzviy bogʻlangan. Shu boisdan egalik kategoriyasining barcha koʻrsatkichida bir vaqtning oʻzida shaxs maʼnosi ham, son maʼnosi ham ifodalanadi. Leksik maʼno individual maʼno

hisoblanadi. Bir ma'no bir so'z bilan bog'langan bo'ladi. Grammatik ma'no leksik ma'nodan tubdan farq qiladi. U leksik ma'noga o'xshab tashqi dunyodagi narsa va voqealarni aks ettirmaydi va individual xususiyatga ega bo'lmaydi. Ular umumiy ma'nolardir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, grammatika bizga so'z va gapning formal-grammatik tomoni-so'z o'zgarishi, sintaktik birliklar va ularning turli ko'rinishi, strukturasi va hosil qiluvchi vositalari, shuningdek, ifodalaydigan grammatik ma'nosini o'rgatadi. Bundan tashqari grammatik kategoriyalarni doimo to'g'ri qo'llash lozim, agar kategoriyalar o'z o'rnida qo'llanmasa, tuzilayotgan gapning grammatik jihatdan ma'nosi buziladi, gapdagi aniqlik va izchillik yo'qoladi. Gap shaxs va sonda moslashmaydi. Shuning uchun ham grammatik kategoriyalarni o'z o'rnida qo'llash zarur. Agar grammatika o'z o'rnida qo'llanmasa ma'no jihatdan g'alizlik paydo bo'ladi. Shunday ekan tilshunoslikning eng katta qismi bo'lgan grammatikani o'rganish biz uchun hamma sohalarda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1R. Sayfullayev O'zbek adabiy tili.
2. Raxmatullayev. O'zbek tili.
- 3.Ubaydullayeva Sadoqat. Hojiyev A lingvistik terminlarning izohli lug'ati.
- 4.Sodiqov A va boshqalar Tilshunoslikka kirish.
5. Nurmonov A. Mahmudov N o'zbek tilining nazariy gramatikasi.
6. S. Usmonov Umumiy tilshunoslik
7. Tursunov T, Alivey A, O'rinboyev B, O'zbek adabiy til tarixi
8. A. Sodiqov, A Abduazizov Tilshunoslikka kirish.